

AQLI ZAIF O'QUVCHILAR MULOQOT KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI VA SAMARALI USULLARI

Abdunazarov Abdumutal Olimovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Pedagogika-psixologiya va musiqa
yo'nalishlarida masofaviy ta'lim kafedrası PhD

Tayanch so'zlar: aqli zaif, alohida ehtiyojli bolalar, ijtimoiy, maxsus ta'lim, kliniko-pedagogik, oligofreniya, endogen, ekzogen, irsiy omillar, aqli zaiflik, debillik, imbesillik, idiotiya.

Ключевые слова: умственно отсталые, дети с особыми потребностями, социальные, специальное образование, клинико-педагогические, олигофрения, эндогенные, экзогенные, генетические факторы, умственная отсталость, деменция, имбецильность, идиотия.

Key words: mentally retarded, children with special needs, social, special education, clinical pedagogical, oligophrenia, endogenous, exogenous, genetic factors, mental retardation, dementia, imbecility, idiocy

Aqli zaif bola shaxsining ijtimoiy hayotga tayyorlash qonuniyatlarini o'rganish, ularning ijtimoiy muammolarini hal qilish maqsadida ijtimoiy pedagogik faoliyatning samarali usullari va texnologiyalarini ishlab chiqish va ularni qo'llashga ehtiyoj mavjuddir. Buning uchun esa, ijtimoiy hayotga tayyorlash va uning mohiyati hamda qanday omillar ta'sirida shaxs ijtimoiy hayotga samarali tayyor bo'ladi kabi savollarga yechim topish maqsadida ijtimoiylashuvning nazariy manbalarda keltirilishini bayon etamiz. "Ijtimoiy" tushunchasi (arabcha, ijtimoiyyun – umumiy, jamoatchilik) insonlarning birgalikdagi hayoti bilan bog'liq bo'lib, ularning muomala va bir-biriga ta'sirining turli xil shakllari birlashtiradi. Aqli zaif bola ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi omillar:

Ma'lumki, kishilik jamiyati o'zining qurilishiga ko'ra turli xildagi o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sir etuvchi muhitda rivojlanadi. Shu jumladan, aqli zaif bola ham shaxs sifatida shakllanishida dastlab oilada, so'ngra ta'lim jarayonida va paralel ravishda boshqa ijtimoiy institutlar muhitida harakatlanadi. Oila – ijtimoiylashishning yetakchi instituti, bu orqali aqli zaif bola asosiy ijtimoiy tasavvurlar, o'zaro munosabatlarni egallaydi, axloqiy uquqlar va ko'nikmalarni o'zlashtirdi. Bu muhitda sog'lom bolaning shakllanishida qator



xususiyatlar aqli zaif bolanikiga nisbatan o'zgacharoqdir. Aynan ularda ma'lum darajada o'z-o'ziga baho va maqsad qilish, unga erishish uchun atrofdagilarga ta'sir ko'rsatish kabilarni taqlid orqali yoki kattalarning ko'magida egallash imkoniyatiga egadirlar.

Maktabgacha ta'lim va keyingi ta'lim turlari – sog'lom bolalar kabi aqli zaif bola ham ta'lim orqali olamni va undagi o'zaro bog'liqliklarni o'zlashtiradi. Ta'limda bilim olish jarayonida, u nafaqat rivojlanadi, balki jamiyatdagi hayotga moslashadi.

Adabiyot va san'at – bu shunday ijtimoiy omilki, u asosida nafaqat aqli zaif bola va kattalar, balki barcha insoniyat o'zi uchun yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni anglashga o'rganadi. Chunki aqli zaif bolaning umumiy va aqliy rivojlanishida adabiyot, musiqa, rasm, ommaviy axborot vositalari va boshqalarning ta'siri kattadir.

Din – ushbu ijtimoiy institutning aqli zaif bolaga ta'siri uning atrofidagi kattalar xatti-harakatida namoyon bo'ladi. Bu muhit murakkab ijtimoiy ko'rinishga egadir. Aqli zaif bolaning oila a'zolari tomonidan amalga oshirilayotgan g'amxo'rlik, boshqa odamlarga salbiy ta'sir o'tkazmaslik, kamtarlik, o'zaro yordam berish, yolg'on gapirmaslik, yaqinlarini qadrlash, halollik, chidamlilik, yaxshilik, mehr-muruvvatlilik va boshqalar ham o'z mohiyatiga ko'ra alohida ta'sir kuchiga ega omillardandir.

Inson rivojlanishi - juda murakkab jarayon. U tashqi ta'sirlar hamda ichki kuchlar ta'sirida sodir bo'ladi. Tashqi omillarga insonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit, shuningdek bolalarda muayyan hislatlarni shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyat kiradi. Ichki omillarga esa biologik, irsiy omillar kiradi. Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiysi, yetakchisi bo'ladi. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi. Bola tug'ilishidan boshlab, me'yorda rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o'zlashtirib olishi mumkin. Bu o'z navbatida bola faoliyatida va atrof-muhitni bilish va o'zlashtirishda yetakchi vazifani bajaradi. Shaxs rivojlanishi harakatlantiruvchi kuchlari bo'lib, bola ehtiyoji va uni qoniqtirish imkoniyati o'rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar hisoblanadi.

Inson shakllanishining biologik va ijtimoiy omillari bir-biriga bog'liqdir. Biologik irsiyat insonni inson qiladigan umumiylikni hamda insonlarni tashqi va



ichki jihatdan turli qiladigan farqlanishni aniqlaydi. Irsiyat deganda bolalar genetikasidagi muayyan hislat va xususiyatlarning ota-onadan bolaga o'tishi tushuniladi. Nasldan bola inson organizmi, inson asab tizimi, inson miyasi va sezgi a'zolarini oladi. Ota-onalardan bolalarga tana tuzilishi xususiyatlari, soch rangi, ko'z, teri rangi kabi bir insonni boshqa insondan farqlaydigan tashqi omillar o'tadi. Inson rivojlanishida intellektual hislatlarning o'tishi masalasi juda muhimdir. Filolog va psixologlar tadqiqotlariga ko'ra, qobiliyatlar nasldan o'tmaydi, faqat qobiliyatlarni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar hisoblangan qobiliyat nishonalari o'tadi. Bola rivojlanishida irsiyat ahamiyati haqida gapirganda irsiy tabiatga ega bo'lgan bir qator kasallik va patologiyalarning mavjudligini e'tiborga olish lozim.

Sog'lom bolalar o'z atrofidagi hodisalar bilan tanishish jarayonida buyum, narsalarning nomlarini, vazifalarini, sifat va xususiyatlarini, qismlarini bildiruvchi so'zlarni bilib oladilar. Keyinchalik ular haqida o'z fikrlarini bildirganda, so'zlab berilganda, pedagogning savollariga javob berganda shu so'zlardan foydalanadilar. Bolalar o'zlari tanishgan har bir narsa, hodisa haqida, zarur bilim va tushunchalarni egallash bilan birga ular haqida bilganlarini so'zlab bera olish malakalariga ham ega bo'ladilar. Pedagoglar tomonidan bola uchun pedagogik sharoitning yaratilishi, bolani majburlash emas, uning ehtiyoji va qiziqishlariga e'tibor berilishi ham sog'lom bolalarning ijtimoiylashuviga ta'sir qiladi. Ehtiyoj inson talablari asosida paydo bo'ladigan tabiiy xususiyat; jonli mavjudot hayot kechirishining yaqqol shart-sharoitlariga, uning shularga bog'liq ekanligini ifoda etuvchi holat. Insonning faolligi boshqa mavjudotlardan tub darajada ham mohiyat, ham shakl jihatdan tafovutga ega bo'lib, yuzaga kelgan ehtiyojlarning turli vaziyatlarda qondirilishida o'z ifodasini topadi. Demak, bolalar ehtiyojini qondirish orqali ta'lim jarayonida ularning faol bo'lishlariga erishish mumkin. Bolalarda ma'naviy-axloqiy sifatlar rivojlanadi hamda fuqarolik tarbiyasi, jamiyatda o'zini tutish madaniyati shakllanib boradi. Sog'lom bola ijtimoiylashuvi makro (grekcha macros «katta»), mezo – (mesos «o'rta») va mikro (micros «kichik») omillari ajratiladi. Mezoomillar – shaxsning milliy hayot va etnik munosabatlarning u yoki bu hollarini qabul qilishi, insonlarning o'z eposi (xalqi) tarixi va hozirgi hayoti haqida qarashlari va fikrlari; bola yashaydigan va rivojlanadigan mintaqaviy shart-sharoitlarning ta'siri; yashaydigan joy turi (shahar, tuman...); ommaviy kommunikasiya vositalari va boshqalar kiradi.



Makroomillar - inson yashaydigan mamlakat, jamiyat, davlat hamda dunyoviy planetar jarayonlar, ekologik, demografik, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va boshqalar.

Sotsium (yaqin muhit) – bola ijtimoiylashuvi uchun muhim ahamiyatga ega. Bu yaqin ijtimoiy muhitni bola asta-sekin o'zlashtiradi. Bola oilada rivojlanadi, so'ng yangi muhitlarni o'zlashtiradi - maktabgacha tashkilotlar, maktab, maktabdan tashqari muassasalar, o'rtoqlar davrasi, tadbirlarda ishtirok etadi. Bolaning ijtimoiylashuvi maydoni kengayib boradi. Aqli zaif bolada esa, birmuncha boshqacha kechadi. Chunki u oilasidagina bo'lganligi sababli atrofdagilar bilan muloqoti cheklangan holda bo'ladi. Ota-onalar ularni o'z oldilarida bo'lishini xohlaydilar. Chunki ular o'z farzandlariga boshqalarning salbiy munosabatlaridan xavotirlanadilar. Buning ustiga aksariyat aqli zaif bolalar o'z-o'ziga xizmat ko'nikmalarini yetarlicha egallamaganligi, o'z-o'zini to'liq anglab yetmaganligi sababli oilalar mazkur bolalarni tashqi muhitga qo'shishdan cho'chiydilar.

Sog'lom bolalar uchun muhitning turli shakllari va ishtirokchilari ta'sirida ijtimoiylashish uchun zarur ko'nikma va malakalarni o'zlashtiradilar. Muhit - bu yana o'ziga xos munosabat va qoidalar o'ziga xos munosabat va qoidalar tizimiga ega bo'lgan turli xil insonlar birligi.

Jamiyatda insonning o'zini tutishi muayyan bir huquq va majburiyatlar bilan tavsiflanadi, sotsiologiyada bu ijtimoiy maqom deb ataladi. Oila bolaning shaxsi shakllanishiga faol ta'sir ko'rsatadigan birinchi va asosiy ijtimoiy mikromuhit bo'lib, ijtimoiy ta'sir ko'rsatish omillaridan biridir. U bolaning jismoyny, psixik va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Oilaning vazifasi bolani u dunyoga kelgan mamlakat madaniyatiga va bola tabiatiga mos ravishda rivojlanib borishi uchun uni asta-sekin jamiyatga kiritib borishdan iboratdir.

Boshlang'ich ijtimoiylashish jarayonida bolani oilada tarbiyalash muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Ota-onalar bolaning birinchi tarbiyachilari bo'lganlar va shunday bo'lib qoladilar. Bolani oilada tarbiyalash murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Oiladagi muhit va sharoit bolaning shaxsi shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Oilada bola o'zini to'la himoyalangan deb his etadi. **«Mening uyim – mening qasrim»** iborasi sog'lom, tinch oila - dunyodagi hamma notinchliklardan vaqtinchalik bo'lsa ham yashirinishga, dam olib o'z kuchlarini to'plab olishga eng ishonchli va eng yaxshi boshpana degan ma'noni yaxshi ifoda etib beradi.



Tarixiy va xorijiy tajribalar tahlili sogʻlom bolalar qatorida aqli zaif bolalarni taʼlim jarayonida ijtimoiy hayotga tayyorlashning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish borasida yetarli darajada tadqiqot olib borilmaganligini koʻrsatdi.

Aqli zaif bolani oiladan ajratib oʻrganish va ijtimoiy hayotga tayyorlash mumkin yemas, shuning uchun "bola-ona-oila", "bola-ota-oila" aloqasidagi barcha turdagi rollarni va shaxslararo munosabatlarni idrok etish kerak. Bu mikrotizim boshqa mikrotizimlar (tibbiyot xodimlari, qoʻshnilar va doʻstlar, tarbiyachilar, oʻqituvchilar va boshqalar) bilan doimiy aloqada boʻladi. Mikrotizim ekotizim kontekstida ishlaydi - bular oila, maxsus reabilitatsiya yoki taʼlim dasturlari bilan faol aloqada boʻlgan shaxslar, xizmatlar va tashkilotlardir. Qoʻllab-quvvatlash guruhlaridan tomonidan nogiron bolalarning oilalariga muhim ijtimoiy, psixologik va amaliy yordam koʻrsatilishi ham muhim omillardan hisoblanadi. Makrotizim ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy omillarni qamrab oladi. Bu oila aʼzolarining farzandining nogironligiga qanday nuqtai nazardan qarashining shakllanishiga keng ijtimoiy muhitning taʼsiridir. Bu oilaviy resurslarning ham xarakteri, ham darajasiga bogʻliq. Shunday qilib, kompleks taʼsir aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashga qaratilishi kerak, ikkinchi tomondan, aqli zaif bolani reabilitatsiya qilishda oilaning tashabbusini qoʻllab-quvvatlash uchun shart-sharoitlar yaratilishi kerak. Aytilganlarni umumlashtirib, biz taʼlim muassasalarida aqli zaif bolani ijtimoiy hayotga tayyorlash tashabbusi, oilaning tashabbusi bilan mos kelishi kerak degan xulosaga kelishimiz mumkin. Aqli zaif bolani ijtimoiy hayotga tayyorlash va oilani pedagogik-psixologik qoʻllab-quvvatlashda maqsadlar va ularga erishish dasturlari kombinatsiyasi ham muhim omildir. Yuqoridan pastga yoʻnaltirilgan dastur asosan, davlat tomonidan rejalashtirilgan, tashkil etilgan va nazorat qilinadi va uzoq muddatli va butun tizimga qaratilgan boʻladi. Muayyan aqli zaif bola uchun ham uning imkoniyatlari inobatga olingan yakka rivojlanish dasturlari ham zarurdir. Bu dastur oila va bola oʻqiydigan taʼlim muassasasi pedagog, psixologlari bilan birga taʼlim muassasasi maqsad va vazifalariga yoʻnaltirilgan holda tuziladi.

Biz tadqiqotimiz davomida boshlangʻich sinf aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalarini tadqiq qilishda aynan mana shu omilga, yaʼni shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim tamoyillariga asoslangan, variativ hamda integrativ yondashuvlarga ustuvorlik berdik. Boshlangʻich sinf aqli zaif bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda qator omillarni aniqladik. Keyingi bobda aynan aqli zaif bolalarning ijtimoiy hayotga tayyorligini baholash mezonlari,



ularga erishishning usullari, vositalari hamda innovatsion texnologiyalari bayon etiladi.

Aytilganlarni umumlashtirib, biz ta'lim muassasalarida aqli zaif bolani ijtimoiy hayotga tayyorlash tashabbusi, oilaning tashabbusi bilan mos kelishi kerak degan xulosaga kelishimiz mumkin. Aqli zaif bolani ijtimoiy hayotga tayyorlash va oilani pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlashda maqsadlar va ularga erishish dasturlari kombinatsiyasi ham muhim omildir. Yuqoridan pastga yo'naltirilgan dastur asosan davlat tomonidan rejalashtirilgan, tashkil etilgan va nazorat qilinadi va uzoq muddatli va butun tizimga qaratilgan bo'ladi. Muayyan aqli zaif bola uchun ham uning imkoniyatlari inobatga olingan yakka rivojlanish dasturlari ham zarurdir. Alohida ehtiyojli bolalar va kattalar uchun imkon qadar ularning yoshiga mos hamda to'laqonli turmush tarzini olib borishlari uchun imkoniyatlarni yaratish; o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish ko'nikmalarini o'rgatish; zarur akademik bilim to'plash; muayyan kasbga moyilligini aniqlash va uni egallashga yo'naltirish; ijtimoiy foydali mehnatda qatnashishning mohiyatini anglatish va bu jarayonga kompleks tayyorlashdan iboratligi dalillandi. Tarixiy va xorijiy tajribalar tahlili aqli zaif bolalarni ta'lim jarayonida ijtimoiy hayotga tayyorlashning zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish borasida yetarli darajada tadqiqot olib borilmaganligini ko'rsatdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, aqli zaif bola bilan ta'limiy-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda aynan ushbu muammoning kelib chiqish sabablari hamda darajalarini bilish muhimdir. Chunki aqli zaiflikni tuzatib bo'lmasa-da, uni yumshatish, bilinmaydigan holatga olib kelish uchun pedagogning ilk qadamlari aynan tibbiy-pedagogik-psixologik yondashuvlarga tayangan holda amalga oshirilishi lozim.

Adabiyotlar

1. Реан А.А. Психология личности: социализация, поведение, общение. – М.: СПб., 2004. –106 с.
2. Сухарева Е. Г. “Клинические лекции По психиатрии Детского возраста” – Москва.: 1955. –25 с.
3. Коррекционная педагогика / С.Ю. Бородулина. – М.: “Феникс”, 2004. – 278 с.

